

## YANGI O‘ZBEKISTONDA NODAVLAT TA‘LIMNING HUQUQIY ASOSLARI

Karimova Saida

Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi,  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20604967>

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda nodavlat ta‘lim tizimining shakllanishi va rivojlanishining huquqiy asoslari tahlil qilingan bo‘lib, yangi tahrirdagi Konstitutsiya, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda Prezident farmonlarining mazmun-mohiyati, nodavlat ta‘limga berilayotgan e‘tibor va imkoniyatlar yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Nodavlat ta‘lim, huquqiy asoslar, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, soliq imtiyozlari, inson kapitali, ta‘lim sifati.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligiga xizmat qilmoda. Hech bir soha e‘tibordan chetda qolmayapti. Ayniqsa ta‘lim tizimiga e‘tibor yanada kuchaydi. O‘zbekistonda ta‘lim sohasini modernizatsiya qilish, uning sifati va qamrovini oshirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu islohotlarning tub mohiyati nafaqat davlat ta‘lim muassasalarini rivojlantirish, balki sohaga xususiy sektorni faol jalb etish - nodavlat ta‘lim tizimini shakllantirish va uni huquqiy jihatdan kafolatlashdan iboratdir. Nodavlat ta‘lim muassasalarining huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning faoliyatining qonuniy asoslarini yaratish sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirish va ta‘lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ta‘lim olish huquqi va nodavlat ta‘limning huquqiy poydevori, eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 50-moddasida: “Har kim ta‘lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta‘lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlaydi”<sup>1</sup>, - deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu normada nafaqat har bir fuqaroni ta‘lim olish huquqi belgilangan, balki mamlakatimizda nodavlat ta‘limni rivojlanishiga imkoniyatlar yaratish, xususiy sektor vakillarining ta‘lim sohasiga sarmoya kiritishi va faoliyat yuritishi davlat tomonidan kafolatlanishi mustahkamlangan.

Nodavlat ta‘lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yana bir asosiy qonun hujjati bu 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun hisoblanadi. Qonunning 3-moddasida nodavlat ta‘lim tashkilotining huquqiy maqomi aniq ko‘rsatilgan bo‘lib: “nodavlat ta‘lim tashkiloti — davlat ta‘lim standartlari, davlat ta‘lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta‘lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs”<sup>2</sup> ekanligi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek qonunning 40-moddasida: “Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta‘lim to‘g‘risidagi hujjat, shuningdek nodavlat ta‘lim tashkilotlari tomonidan beriladigan O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta‘lim to‘g‘risidagi hujjat uzluksiz ta‘limning keyingi turi (darajasi) bo‘yicha o‘qishni davom ettirish yoki tegishli mutaxassislik va

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston. 2023.

<sup>2</sup> Ta‘lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>

kasb bo'yicha ishlash huquqini beradi"<sup>3</sup> deyilgan. Bu o'z navbatida Nodavlat ta'lim tashkilotlari bitiruvchilariga beriladigan ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar davlat ta'lim muassasalari hujjatlari bilan teng huquqiy maqomga ega ekanligini bildiradi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda O'zbekiston Respublikasi hududida davlat va nodavlat ta'lim muassasalari teng huquqli, teng imkoniyatlar asosida faoliyat yuritishi mumkinligi aniq ifodalab berilgan.

Faqatgina qonunlar emas, balki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari ham nodavlat ta'lim sektorini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrda qabul qilingan "nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>4</sup>gi PQ-3276-sonli Qarorida "barcha turdagi soliq va davlat maqsadli jamg'armasiga majburiy to'lovlardan (yagona ijtimoiy to'lovdan tashqari), bunda ozod qilinayotgan mablag'lar ularni zamonaviy o'quv vositalari bilan jihozlash, zarur mahsulotlar va jihozlar sotib olish, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga bepul ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga maqsadli yo'naltiriladi"<sup>5</sup>deb belgilab qo'yilganligi nodavlat ta'lim muassasalariga berilgan keng imkoniyat deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda nodavlat ta'limning rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, buning huquqiy asoslari yaratilgan. O'zbekistonning bugungi oqilona huquqiy siyosati yaqin kelajakda mamlakatni Markaziy Osiyodagi eng yirik va jozibador ta'lim va ilm-ma'rifat markaziga aylantirish uchun xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-3343077>
4. Mannonov, A., Rahmonov, H., Kodirova, K., Jalolova, S., Bayeshanov, A., Khamidova, S., ... & Karimov, U. (2025). The impact of Uzbek-language mobile libraries on digital education. *Indian Journal of Information Sources and Services*, 15(1), 315-319.

<sup>3</sup>. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-3343077>

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-3343077>